

XALQ QALBIGA JOYLANGAN IJODKOR

Abdujalilova Moxinur Valijon qizi

Toshkent davlat transport universiteti ATM fakulteti 2-bosqich talabasi

abdujalilovamohinur03@gmail.com+99 893 748 56 66

Annotatsiya

Mazkur maqolada shoir Maqsud Shayxzodaning xalq qalbidan joy olgan sermahsul ijodi va uning o'zbek milliy maqdaniyatida tutgan o'rni haqida mushohada yuritiladi. Shoir she'rlarida Ona Vatan, Tinchlik, Samimiylik, Tinchlik, Mehnatsevarlik mavzularining aks etishi uning jozibali misralari orqali tahlil qilinadi. O'zbek adabiyotida shoirning o'rni va nufuzi juda baland ekanligi ko'rsatiladi hamda shoir she'rlariga bugungu kundagi ijtimoiy-ma'naviy ehtiyojning mavjudligi asoslanadi. Shuningdek, shoirning she'riy tragediyasi "Mirzo Ulug'bek" asarining badiiy qimmatini tahlil etiladi. Asarning o'zbek va jahon adabiyotida tutgan o'rni haqida mulohazalar yuritiladi. Adib ijodining o'zbek adabiyotiga ko'rsatgan ta'siri real baholanadi. Shoir ijodining o'rganish yuzasidan taklif va tavsiyalar beriladi.

Kalit so'zlar: Maqsud Shayxzoda she'riyati, dramaturgiya, tragediya, badiiy ijod, harbiy lirika, vatanparvarlik, "Mirzo Ulug'bek", intim lirika, intellectual lirika.

Annotation

This article discusses the poet Maqsud Shaykhzoda's prolific work in the hearts of the people and his role in the Uzbek national culture. The poet's poems reflect the themes of Motherland, Peace, Sincerity, Peace, and Diligence, which are analyzed through his captivating verses. The role and prestige of the poet in Uzbek literature is very high, and the poet's poems are based on the existence of today's socio-spiritual needs. The artistic value of the poet's poetic tragedy "Mirzo Ulugbek" is also analyzed. The role of the work in Uzbek and world literature is discussed. The impact of the author's work on Uzbek literature is realistic. Suggestions and recommendations are given for the study of the poet's work.

Keywords: Maqsud Shaykhzoda's poetry, drama, tragedy, literature, military lyrics, patriotism, "Mirzo Ulugbek", intimate lyrics, intellectual lyrics.

Yozuvchi va ijodkorlarning o'zlari tomonidan yozilgan avtobiografiya va esdaliklarida ijtimoiy hayot va ijod o'rtasidagi mutanosiblik bot-bot takrorlanishi



bejiz emas. Zero, bu jarayonda ijodkor nafaqat xalqqa nafi tegadi, balki shu orqali xalq bilan bir qozonda qaynaydi. Xalqning dardini, ichki kechinmalarini, orzu-istaklarini, quvonch-u tashvishlarini his qiladi, tatiydi [Шарафиддинов 1999: 45]. Ayni zamonda xalq tilining betakror jozibasini o'rganadi. O'z asarlarida xalqning qadimiy va navqiron, sehrli va betakror so'zlarini qo'llash orqali ona tilining jozibasini, tarovatini nomoyish qiladi. Mana shu omillar sabab adabiyotning xalqchilligi, milliyligi, hayotiyliги yanada kuchayaveradi.

Maqsud Shayxzoda – faylasuf shoir, mohir dramaturg, zabardast olim, yetuk tarjimon, ehtirosli publitsist sifatida XX asr o'zbek adabiyotidan munosib o'rin egallagan. Ozarbayjon xalq yozuvchisi Mirzo Ibrohimov ham Maqsud Shayxzoda ijodiga yuksak baho bergan. U “Maqsud Shayxzoda zuvalasi she'riyat shu'lası bilan yo'g'rilgan kuychi edi, uning asarlarida buyuk xalqchil idealar, vatanparvarlik tuyg'ulari, chinakam insoniy hissiyotlar bilan yashagan yoniq qalbning gulduros aks sadosi o'z tajassumini topgan”, deb yozgan edi. Maqsud Shayxzoda yoshligida ilm olishga she'riyatga juda qiziqdi. U maktabda o'qib yurgan chog'laridayoq she'rlar va maqolalar yoza boshladi. Shyxzoda o'n uchga kirganda uning “Askar qo'shig'i” she'ri shahar gazetasida bosilib chiqdi. Yosh ijodkor o'n besh yoshga to'lganida Oqtoshdagi havaskorlar drama to'garagi uning kichchik bir pyesasini sahnalashtirdi. 1926-1928yillarda Oqtosh shahar gazetasida Shayxzodaning “Dog'iston maktablari” nomli turkum maqolalari e'lon qilindi.

1927-yilda “Ma'orif va medeniyet” jurnalida “Narimon haqida xalq ertagi” dostoni chop etildi. Maqsud Shayxzoda avval o'z shahridagi Dorilmuallimda so'ngra Boku Davlat Pedagogika institutida ta'lim oldi. 1928-yilda yurtidan surgun qilib Toshkentdan panoh topgan Maqsud Shayxzoda umrining oxirigacha shu shaharda yashadi va mehnat qildi [Шарафиддинов 2004: 125]. Zero Mirzo Ibrohimov qayd qilganidek: “Buyuk Ulug'bekning, Navoiyning muqaddas vatani O'zbekiston Maqsudni o'z farzandidek mehribon quchog'iga oldi va uning ulkan shoirlik istedodiga qo'sh qanot baxsh etdi”. Maqsud Shayxzodaning “O'n she'r” (1930) nomli birinchi to'plamida yilt etib ko'ringan obrazlilik belgilari shoirning nashr etilgan “Undoshlarim”(1933), “Uchinchi kitob ” (1934), “Jumhuriyat” (1935) kabi to'plamlarida tobora yorqinroq namoyon bo'lib bordi. Maqsud Shayxzodaning 30-yillarda she'riyatda haroratli lirizm, teran mazmun va falsafiy mushohada kuchaydi. Shoir bu davrda “Vatan”, “Kamtarlik”, “Buvijon”, “Nishon”, “Bahorda yomg'ir” “Yulduzlarga bo'ldim hamsoya”, “Qonun”, “Chimyon”, “Tingla, ey ko'ngil!”, “Misraning tug'ilishi” kabi she'rlarda xilma-xil zamonaviy mavzularni tasvirlab yangi zamon va yangi hayotga doir muhim poetik xulosalarni



olg'a surdi. Bunda shoir fikriy aniqlikni yangi obraz yaratish qofiya va vazn mukammalligini uslub ravonligini ta'minlash bilan omuxta qildi. Jonli obrazlar, ohori to'kilmagan yangi tashbehlar vositasida hayot va inson haqida teran poetik mulohaza yaratdi. "Yulduzlarga bo'ldim hamsoya" she'ridagi ravon misralar va yangi qofiyalar bunga misol bo'ldi:

Yulduzlarga bo'ldim
hamsoya,
Chiqdim ko'kka poyama-
poya.
Bo'ldi menga oltin oy yostiq,
Gumonlarga hammasi tasdiq,
Uchar edim xayolday
yuksak,
Oq bulutlar ostimda
to'shak.

Maqsud Shayxzoda 30-yillarda xilma-xil she'rlar yozish bilan birga, "Meros", "O'rtoq", "Chiroq", "Tuproq va haq" singari dostonlar ham yaratdi.

Maqsud Shayxzodaning "Kapitan Gastello", "Qondoshlik", "Yo'q, men o'lgan emasman", "Chorak asr" kabi she'rlarida ham urush va tinchlik, o'lim va hayot, do'stlik va qahramonlik, yovuzlik vat inch insoniylik haqidagi muhim poetik fikrlar mohirona ifodalangan. "Kapitan Gastello" she'rida shoir jangda mardligini ajoyim namunasini ko'rsatga uchuvchi Gastello jasoratini chuqur ehtiros va samimiy ixlos bilan tasvirlab haqiqiy vatanparvar jangchilarning yorqin obrazini yaratdi. Ma'lumki, kapitan Gastello-tarixiy shaxs shoir asarida hayotiy hodisa va aniq tarixiy faktdan ustalik bilan foydalangan Gastello jasoratini hikoya qilish orqali hayot va o'lim haqida chuqur ma'noli ijtimoiy xulosa chiqargan. "Tiz cho'kib yuz yil yashagandan ko'ra qahramonlik ko'rsatib bir kun yashash afzaldir",- degan fikrni umumiy ruhiga singdirib, kishilarni Gastelloday mard, botir bo'lishga chqairgan. Maqsud Shayxzoda urush davrida bevosita jang voqealarini tasvirlash bilan cheklanmaydi. U "Bog'bon", "Asalchi", "Yigiraman-ip beraman", "Olma" singari sherlarida jangoh ortidagi kishilarning mehnat-u tashvishlarini, o'ylarini aks ettirdi. Maqsud Shayxzoda urush yillarida yuzaga kelgan aksariyat she'rlari badiiy mahorat jihatidan ham ibratli. Shoir mumtoz aabiyot an-analari va xalq og'zaki ijodi boyliklaridan foydalanib, harbiy mudofaa mavzularini sodda va ta'sirli qilib yaratar ekan, maqol va aforizmlar darajasiga ko'tarilgan sermazmun va go'zal baytlar to'qiydi. "Ajdar va odam" "Semenchenko, ofarin" she'rlarida folklor



qahramonlariga xos afsonaviy xislatlar hozirgi jangchilar faoliyatlariga ibrat sifatida keltiriladi. Shoirning “Vatan”, “Bu yer mening vatanim”, “Yurtim”, “Paxta manzumi” kabi she’rlarida xalqning bunyodkorlik faoliyati zavq-shavq bilan tasvirlaydi. Bunyodkor inson qadr-qimmatini yuksaklikka ko’taradi. Binobarin shoirning “Mukofotlar muborak”, “Hormasin bu qo’llar”, “Paxtakor va shoir” singari she’rlari halol mehnat qilayotgan azamat zamondoshlar sha’niga aytilgan dilrabo madhiyadek yangraydi. “Mukofotlar muborak” she’rida shoir yorqin va yaxlit sheriylar ta’rif-tavsiflar kashf etib, samarqandlik mehnatkash dehqon obrazini mehr-muruvvat bilan gavdalandirgan: Samarqandlik deyildimi- Ahdga vafo degani. Samarqandlik deyildimi- Ishlar bajo degani. Samarqandlik deyildimi- Chin grajdan degani. Samarqandlik deyildimi- Toza vijdon degani.

Maqsud Shayxzoda she’riyatida xalqlar do’stligi mavzusiga katta o‘rin berilgan. Shoir do’stligi va birodarligini hayot haqiqatiga mos holda qayta-qayta kuylandi. Xalqlar o‘rtasidagi do’stlikning azaliy tarixiga va uning buyuk ahamiyatiga doir falsafiy mazmunni betakror misralarda jo‘shqin ifodalaydi. Maqsud Shayxzoda do’stlikni kuylash va ulug‘lash bilan birga, tinchlikni saqlash, urushning oldini olish to‘g‘risida ham qator asarlar bitgan. Shoirning “Sevgi va Tinchlik”, “Yuksal, tinchlik bayrog‘i”, “Kabutarlar” singari she’rida urushga nafrat, tinchlik uchun kurash mavzusi jo‘shqinlik va ko‘tarinkilik bilan yoritilgan. Shoir “Yuksal, tinchlik bayrog‘i” she’rida turli badiiy tasvir vositalaridan, xususan notiqlik san’ati imkoniyatlaridan ustalik bilan foydalangan. Maqsud Shayxzodaning “Toshkentnoma” (1957) lirik-falsafiy dostoni o‘zbek she’riyatining jiddiy yutug‘idir. Doston sermazmun poetik fikrlarga, falsafiy umumlashmalarga boy, unda hikmatli so‘z – aforizm darajasiga ko‘tarilgan sermazmun baytlar, quyma misralar ko‘p [Ahmedov 2015: 65]. Masalan, shoir vatan tushunchasining mazmuni va mohiyati haqida fikr yuritib, hikmatli misralar ko‘magida yorqin falsafiy-badiiy umumlashma yaratgan:

Vatanning ma’nosi ulug‘vor ulkan
Ha, vatan so‘zining cheki bepayon.
Bu yerda tug‘ilgan yashagan o‘lgan
Yaratgan, ishlagan kurashgan inson
Vatan mehri bilan o‘z qadrin bilgan.
Vatansiz kimsalar darvish deyilgan.

Har bir shoir o‘z davrining farzandi. U o‘zi yashagan davr voqea va hodisalriga hech qachon loqayd qarab tura olmaydi. Ammo u o‘z davrining o‘tkinchi masalalari girdobida o‘ralashib qolmay, abadiy haqiqatlarni katta mahorat bilan tasvirlay



olsagina, ulug‘ shoir darajasiga erisha oladi. U shu jarayonda shunday asarlar yaratadiki, bu asarlar o‘zi bilan birga insoniyatni ham kelajak sari yetaklab borishi mumkin. XX asrning 20 – 30-yillarida qalam tebratgan shoirlar butunlay boshqa tarixiy sharoitda yashadilar. Ular shu davr bilan hamqadam va hamnafas bo‘lishni o‘zlarining nafaqat shoirlik, balki vatanparvarlik burchlari deb bildlar.

Yuksak san‘at asari darajasidagi she‘rning maydonga kelishida qandaydir biz bilmagan omillar ishtirok etadi [Eshchanova 2013: 34]. Shu jarayondagi xis va tuyg‘ular oqimi o‘zining ko‘rinmas iplari orqali qandaydir sirli olamlar bilan bog‘lanadi va ulardan ruhiy quvvat oladi. “Bahorda yomg‘ir” she‘rini yozganidan keyin, Shayxzoda ham balki she‘rning yaratilishidek sehrli ijodiy jarayon to‘g‘risida o‘ylagandir. Har holda oradan bir necha kun yoki oy o‘tgach, u o‘zining lirik zamzamaridan biri-“Misraning tug‘ilishi” she‘rini yaratgan. U xuddi “Bahorda yomg‘ir” she‘ridagidek, bu she‘rda ham tabiat tasviri bilan boshlanadi. U quyoshning botishidek, tabiatning benihoya go‘zal manzarasini tasvirlab bo‘lgach, bunday yozgan:

Rayhonlarning sarhush hidini

To‘plab chiqar bog‘larda

oqshom, Xiromon bir

shaboda bilan Kelayotir

menga ham ilhom.

Soyga qarab egilgan tolda

Nozli suvlar bo‘ldilar Maddox,

Cho‘kib kelgan ko‘k soyalarda,

Shoir topdi tanxo hilvatgoh...

Shoir shunday so‘z durlaridan keyin yana jannatmonan vatanimizning oqshom paytidagi betakror manzarasini rassom yanglig‘ chizishda davom etadi:

Fikr qiyar hayol libosin,

Obrazlarga makondir

miya Ruhim ko‘char

she‘ristonga, Sho‘x

qanotli uchar qofiya.

Shoir o‘zbek xalqi tarixit o‘tmishining olis davrilariga nazar tashlab, xotin-qizlarning yurt ozodligi yo‘lida olib brogan kurashlari va shu kurashlarda ko‘rsatgan jasoratlarini bejiz tilga olmaydi. Shunday mardona ayollarimizdan biri Zebo G‘aniyeva ona vatanni yovuz ushmandan himoya qilgan o‘zbek xotin-qizlarining munosib vakilasi edi. Uning yuragida o‘sha To‘marisdek ayollarning



ayollarning qoni jo'sh urib turdi. Tarix tuyg'usi bilan yo'g'rilgan shoir Zebo g'aniyevani ana shunday tarixiy shaxslar va voqelar fonida ko'rdi va uning obrazini ko'tarinki ruhda tasvirladi.

Maqsud Shayxzodaning tarixiy-biografik janrda yaratilgan "Mirzo Ulug'bek" tragediyasi XX asr o'zbek adabyoti tarixida alohida o'rin tutadi. Ozod Sharafiddinov tarifi bilan aytganda, bu ajoyib asar "...uch cho'qining biri..." Mirzo Ulug'bek" tragediyasi hech bir ikkilanmagan holda jahon adabiyotining eng yorqin namunalari bilan bir qatordga qo'ysa bo'ladi... Unda tasvirlangan hayot dramtizmi jihatidan eng mashhur tragedyalardagidan zarracha kam emas, asardagi yetakchi xarakterlar har jihatdan barkamol, qahramonlarning obrazi real va betakror. Maqsud Shayxzoda 1955-yilda bu tragediyani yozishga kirishadi va uni 1960-yilda yozib tugatadi. Asar besh pardadan iborat. Unda XV asardagi tarixiy sharoit butun murakkabligi bilan to'g'ri ko'rsatilgan. Ajdodlarimizning ajoyib qadriyatlari, ezgu an'analari, ilm-fan sohasidagi buyuk kashfiyotlari ulug'lanib, feodal tuzumning fojiali tomonlari ro'yi rost tasvirlangan, zulm va istibdod, xurofiy bid'at keskin qoralangan.

"Mirzo Ulug'bek" tragediyasi adolatli podshoh va buyuk astronom olim Ulug'bek boshchiligidagi ilg'or ziyolilar, taraqiyparvar kuchlar bilan qora niyatli guruhlar o'rtasidagi kesken kurash asosiga qurilgan. Asarda Mirzo Ulug'bek, Ali Qushchi, Sakkokiy, Abdurazoq Samarqandiy, Xo'ja Ahror, Gavharshobegim, Abulatif kabi tarixiy shaxslar xarakterini ochib berish uchun dramaturg tarixiy-ilmiy manbalarni ham chuqur o'rgangan. Asar veqeyligidagi asosiy badiiy go'ya ilm-fan yo'liga g'ov bo'luvchi diniy-xurofiy qarashlarning insoniyat tamadduniga g'ov bo'lishi kuchli pafos bilan obrazlashtirilgan [Olimov 2019: 133]. Garchi bu kabi vaziyat Yevropada ham kuzatilgan bo'lsa-da, "Mirzo Ulug'bek"day yetuk tragediyaning shakllanishi aynan milliy adabiyotimiz bag'rida sodir bo'ldi.

Albatta, dramaturgning eng kata yutug'I asarning janr talablariga to'la moslashtira olganligida. Ko'pchilikka ma'lumki, dramatic asarlar ichida tragediyaning janriy talablari juda kuchli va u har qanday ijodkorning badiiy quvvatidan qanoatlanmaydi [Xudoyberdiyev 2007: 79]. Buyuk tragediyanavislar Exsil, Sofokl, Shekspir kabi ijodkorlarning qanday katta iste'dodga ega bo'lganligini bugungi adabiyotshunoslar tan oladilar. Maqsud Shayxzoda ham tragediya janrida o'ziga xos tajriba maktabini yaratdi. O'zbek adabiyotida bu janrdagi eng mukammal asar sifatida "Mirzo Ulug'bek" va Fitratning "Abulfayzxon" tragediyasi tan olinadi.

Maqsud Shayxzodaning she'riy asarlari va tragediyasi o'zbek adabiyotini boyitish bilan birga xalq madaniyma'naviy dunyoqarashining o'sishida ham kata ahamiyatga



ega bo‘lgan. Shu bois uning ijodi yaqin ellik yil ichida qayta-qayta o‘rganilmoqda. Asarlari maktab darsliklaridan tushmay kelmoqda. Bularning barchasi shoir ijodiga bo‘lgan ma’naviy ehtiyoj natijasida albatta. Shunday ekan, shoir ijodini o‘rganish va keng targ‘ib qilish bugungi kunda ham dolzarb ahamiyatga ega.

Adabiyotlar:

1. Ahmedov S., Qosimov B., Qo‘chqorov R., Rizayev Sh. Adabiyot. Umumiy o‘rta ta’lim maktablarining 5-sinfi uchun darslik, Toshkent, “Sharq” 2015 – 176 b.
2. Eshchanova Gulnora. She’riy asar tahlilida nima muhim? Til va adabiyot ta’limi, 2013-yil, 8-son, 33-34 betlar.
3. Hasanov M. So‘zmunchiq. Toshkent, “Mashhur-press” 2020. – 128 b.
4. Olimov S. va boshqalar. Adabiyot. Umumiy o‘rta ta’lim maktablarining 8-sinfi uchun darslik, I qism. Toshkent
5. “Yangiyo‘l Poligraf servis” 2019 – 260 b.
6. Xudoyberdiyev Erkin. Adabiyotshunoslikka kirish. Toshkent, “Iqtisod-moliya”, 2007 y. 304 b.
7. Озод Шарафиддинов. Сардафтар саҳифалари. Мақолалар. Хотиралар. Тошкент, “Ёзувчи”, 1999. – 224 бет.

